

**O‘ZBEKISTONDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA
TEXNOLOGIYALARINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN
NORMATIV HUJJATLAR HAQIDA
MA’RUZA MATNI**

Reja

1. Kirish
2. O‘zbekiston Respublikasining axborotlashtirish to‘g‘risidagi qonuni haqida.
3. Elektron raqamli imzo to‘g‘risidagi qonun haqida.
4. Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risidagi qonun haqida.
5. Elektron tijorat to‘g‘risidagi qonun haqida.
6. Elektron to‘lovlar to‘g‘risidagi qonun haqida.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –Toshkent: «Ma’naviyat», 2008. -176 b.
2. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari.–T.: O‘zbekiston, 2009. – 56 b.
3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi Hay’atining 2009 yil 21 fevraldagi 2/7-sonli qarori. 3-ilova.
4. “Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. Toshkent sh. 2002 yil 6 iyun.
5. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining farmoni. (2005 yil 8-iyul.).
6. O‘zbekiston Respublikasining jamoat ta’lim axborot tarmog‘ini tashkil etish to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining farmoni.

(2005 yil 28-sentabr).

Davlat hokimiyati va tashkilotlarda axborot texnologiyalaridan foydalanishdan maqsad, tashkilotlarni birgalikda ishlash tezligi va samarasini oshirish, hamda barcha fuqarolarga xizmat ko'rsatishni taqdim etishdan iborat. Axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish boshqaruv samaradorligini va milliy raqobatdoshlikni oshirishga olib keladi.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirishning turli omillari mavjud, ulardan biri bu siyosiy-huquqiy faktor hisoblanadi. Bu siyosiy-huquqiy faktor ratsional natijalarga erishish va xulosalar qilish faoliyatini puxta rejalashtirish siyosatidir. Siyosiy faktor hukumatning rivojlanishi hamda siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni, byudjetlashtirish faoliyati millatlararo kelishuvlar, deklaratsiyalar, shartnomalar yoki operatsiyalar bilan ishlashga mo'ljallangan. Bu siyosiy-huquqiy omil bozordagi alternativ harakatlar va tovarlar narxi mahalliy AKT sanoatini himoyalaydi.

Hozirgi kunga qadar Respublikamizda axborot texnologiyalaridan foydalanish sohasini tartibga soluvchi quyidagi asosiy meyoriy-huquqiy hujjatlar mavjud:

1. O'zbekiston Respublikasining 13 ta Qonuni;
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5 ta Farmoni;
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 40 dan ortiq qarorlari hamda 1000 ga yaqin sohaga oid meyoriy hujjatlar ishlab chiqilgan.

Axborotlashtirish sohasidagi asosiy meyoriy-huquqiy hujjatlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

№	Qonun nomi	Sanasi
1.	Axborotlashtirish to'g'risida	2003 yil 11-dekabr
2.	Elektron raqamli imzo to'g'risida	2003 yil 11-dekabr
3.	Elektron hujjat aylanishi to'g'risida	2004 yil 29-aprel
4.	Elektron tijorat to'g'risida	2004 yil 29-aprel

5.	Elektron to'lovlar to'g'risida	2005 yil 16-dekabr
----	--------------------------------	--------------------

O'zbekiston Respublikasining axborotlashtirish to'g'risidagi qonuni haqida

O'zbekiston Respublikasining axborotlashtirish to'g'risidagi qonuni 2003 yilda qabul qilingan. Ushbu qonun 23 ta moddadan iborat bo'lib, uning maqsadi axborotlashtirish, axborot resurslari va axborot tizimlaridan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

- axborotlashtirish - yuridik va jismoniy shaxslarning axborotga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun axborot resurslari, axborot texnologiyalari hamda axborot tizimlaridan foydalangan holda sharoit yaratishning tashkiliy ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy jarayoni;
- axborot resursi - axborot tizimi tarkibidagi elektron shakldagi axborot, ma'lumotlar banki, ma'lumotlar bazasi;
- axborot resurslarining yoki axborot tizimlarining mulkdori - axborot resurslariga yoki axborot tizimlariga egalik qiluvchi, ulardan foydalanuvchi va ularni tasarruf etuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs;
- axborot resurslarining yoki axborot tizimlarining egasi - qonun bilan yoki axborot resurslarining, axborot tizimlarining mulkdori tomonidan belgilangan huquqlar doirasida axborot resurslariga yohud axborot tizimlariga egalik qiluvchi, ulardan foydalanuvchi va ularni tasarruf etuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs;
- axborot texnologiyasi - axborotni to'plash, saqlash, izlash, unga ishlov berish va uni tarqatish uchun foydalaniladigan jami uslublar, qurilmalar, usullar va jarayonlar;
- axborot tizimi - axborotni to'plash, saqlash, izlash, unga ishlov berish hamda undan foydalanish imkonini beradigan, tashkiliy jihatdan tartibga solingan jami axborot resurslari, axborot texnologiyalari va aloqa vositalari.

Axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosati axborot resurslari, axborot texnologiyalari va axborot tizimlarini rivojlantirish hamda takomillashtirishning

zamonaviy jahon tamoyillarini hisobga olgan holda milliy axborot tizimini yaratishga qaratilgan.

Axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yoʻnalishlari quyidagilardan iborat:

1. Har kimning axborotni erkin olish va tarqatishga doir konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirish, axborot resurslaridan erkin foydalanilishini taʼminlash;
2. Davlat organlarining axborot tizimlari, tarmoq va hududiy axborot tizimlari, shuningdek yuridik hamda jismoniy shaxslarning axborot tizimlari asosida Oʻzbekiston Respublikasining yagona axborot makonini yaratish;
3. Xalqaro axborot tarmoqlari va Internet jahon axborot tarmogʻidan erkin foydalanish uchun sharoit yaratish;
4. Davlat axborot resurslarini shakllantirish, axborot tizimlarini yaratish hamda rivojlantirish, ularning bir-biriga mosligini va oʻzaro aloqada ishlashini taʼminlash;
5. Axborot texnologiyalarining zamonaviy vositalari ishlab chiqarilishini tashkil etish;
6. Axborot resurslari, xizmatlari va axborot texnologiyalari bozorini shakllantirishga koʻmaklashish;
7. Dasturiy mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlantirilishini ragʻbatlantirish;
8. Tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash va ragʻbatlantirish, investitsiyalarni jalb etish uchun qulay sharoit yaratish;
9. Kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish, ilmiy tadqiqotlarni ragʻbatlantirish.

Elektron raqamli imzo toʻgʻrisidagi qonun haqida

Oʻzbekiston Respublikasining elektron raqamli imzo toʻgʻrisidagi qonuni 2003 yilda qabul qilingan. Ushbu qonun 22 ta moddadan iborat boʻlib, uning maqsadi elektron raqamli imzodan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qoʻllaniladi:

- elektron raqamli imzo - elektron hujjatdagi mazkur elektron hujjat axborotini elektron raqamli imzoning yopiq kalitidan foydalangan holda maxsus o'zgartirish natijasida hosil qilingan hamda elektron raqamli imzoning ochiq kaliti yordamida elektron hujjatdagi axborotda xatolik yo'qligini aniqlash va elektron raqamli imzo yopiq kalitining egasini identifikatsiya qilish imkoniyatini beradigan imzo;
- elektron raqamli imzoning yopiq kaliti - elektron raqamli imzo vositalaridan foydalangan holda hosil qilingan, faqat imzo qo'yuvchi shaxsning o'ziga ma'lum bo'lgan va elektron hujjatda elektron raqamli imzoni yaratish uchun mo'ljallangan belgilar ketma-ketligi;
- elektron raqamli imzoning ochiq kaliti - elektron raqamli imzo vositalaridan foydalangan holda hosil qilingan, elektron raqamli imzoning yopiq kalitiga mos keluvchi, axborot tizimining har qanday foydalanuvchisi foydalana oladigan va elektron hujjatdagi elektron raqamli imzoning haqiqiylikini tasdiqlash uchun mo'ljallangan belgilar ketma-ketligi;
- elektron raqamli imzoning haqiqiylikini tasdiqlash - elektron raqamli imzoning elektron raqamli imzo yopiq kalitining egasiga tegishlilik va elektron hujjatdagi axborotda xatolik yo'qligi tekshirilgandagi ijobiy natija;
- elektron hujjat - elektron shaklda qayd etilgan, elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan hamda elektron hujjatning uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan boshqa rekvizitlariga ega bo'lgan axborot.

Elektron raqamli imzoni ro'yxatga olish markazi

Ro'yxatga olish markazi maxsus vakolatli organda davlat ro'yxatidan o'tgan va ushbu qonunda nazarda tutilgan vazifalarni bajarayotgan yuridik shaxsdir.

Ro'yxatga olish markazi quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Elektron raqamli imzolarning yopiq va ochiq kalitlarini yaratadi;
2. Elektron raqamli imzo yopiq kaliti muhofaza qilinishini ta'minlaydi;
3. Elektron raqamli imzolar kalitlari sertifikatlarining reyestrini yuritadi, uning o'z vaqtida yangilanishini hamda undan yuridik va jismoniy shaxslarning erkin foydalana olish imkoniyatini ta'minlaydi;

4. Yuridik va jismoniy shaxslarga elektron raqamli imzolar kalitlarining sertifikatlarini elektron hujjatlar shaklida va qog'oz hujjatlar shaklida beradi;
5. Elektron raqamli imzolar kalitlari sertifikatlarining amal qilishini to'xtatib turadi va qayta tiklaydi, shuningdek ularni bekor qiladi;
6. Yuridik va jismoniy shaxslarning murojaatiga binoan elektron hujjatlardagi elektron raqamli imzoning haqiqiyiligini tasdiqlaydi;
7. Elektron raqamli imzoli qog'ozdagi elektron hujjatlarning ko'chirma nusxalarini tasdiqlaydi;

Elektron hujjat aylanishi to'g'risidagi qonun haqida

O'zbekiston Respublikasining elektron hujjat aylanishi to'g'risidagi qonuni 2004 yilda qabul qilingan. Ushbu qonun 19 ta moddadan iborat bo'lib, uning maqsadi elektron hujjat aylanishi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Elektron hujjat aylanishi sohasidagi davlat siyosati elektron hujjat aylanishi keng qo'llanilishini ta'minlashga, elektron hujjat aylanishi ishtirokchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga, elektron hujjatdan foydalanish standartlari, normalari va qoidalarini ishlab chiqishga qaratilgan.

Ushbu qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

Elektron hujjat - elektron shaklda qayd etilgan, elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan va elektron hujjatning uni identifikatsiya qilish imkoniyatini beradigan boshqa rekvizitlariga ega bo'lgan axborot elektron hujjatdir.

Elektron hujjat texnika vositalaridan va axborot tizimlari xizmatlaridan hamda axborot texnologiyalaridan foydalanilgan holda yaratiladi, ishlov beriladi va saqlanadi.

Elektron hujjat elektron hujjat aylanishi ishtirokchilarining mazkur hujjatni idrok etish imkoniyatini inobatga olgan holda yaratilishi kerak.

Axborot kommunikatsiya vositalari va texnologiyalari yordamida inson uchun qulay shaklda saqlanadigan, uzatiladigan va taqdim etiladigan va uni tanib olishga imkon beradigan rekvizitlarga ega elektron vositalardagi axborot - bu elektron hujjatdir.



Rasm 4.1. Elektron hujjat almashinuvi tizimi

Elektron hujjatning majburiy rekvizitlari quyidagilardan iborat:

- elektron raqamli imzo;
- elektron hujjatni jo‘natuvchi yuridik shaxsning nomi yoki elektron hujjatni jo‘natuvchi jismoniy shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi;
- elektron hujjatni jo‘natuvchining pochta va elektron manzili;
- hujjat yaratilgan sana.

Qonun hujjatlarida yoki elektron hujjat aylanishi ishtirokchilarining kelishuvi bilan elektron hujjatning boshqa rekvizitlari ham belgilanishi mumkin.

Elektron hujjat almashish tizimlari – elektron hujjatlarni axborot-kommunikatsiya tizimi orqali jo‘natish va qabul qilish jarayonlari yig‘indisi.

Elektron hujjat aylanishidan bitimlar (shu jumladan shartnomalar) tuzish, hisob-kitoblarni, rasmiy va norasmiy yozishmalarni amalga oshirish hamda boshqa axborotlarni almashishda foydalanish mumkin.

Elektron tijorat to‘g‘risidagi qonun haqida

O‘zbekiston respublikasining elektron tijorat to‘g‘risidagi qonuni 2004 yilda

qabul qilingan. Ushbu qonun 14 ta moddadan iborat bo'lib, uning maqsadi elektron tijorat sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Ushbu qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

- Elektron tijorat - axborot tizimlaridan foydalangan holda amalga oshiriladigan, tovarlarni sotish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatishga doir tadbirkorlik faoliyati elektron tijoratdir.
- Elektron tijorat ishtirokchilari - elektron tijoratni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek tegishli tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) haridorlari bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar elektron tijorat ishtirokchilaridir.

Elektron tijoratda axborot vositachilari ham ishtirok etishlari mumkin. Elektron hujjat aylanishi bilan bog'liq xizmatlar ko'rsatuvchi yuridik va jismoniy shaxslar axborot vositachilaridir.

Elektron to'lovlar to'g'risidagi qonun haqida

O'zbekiston Respublikasining elektron to'lovlar to'g'risidagi qonuni 2005 yilda qabul qilingan. Ushbu qonun 23 ta moddadan iborat bo'lib, uning maqsadi elektron to'lovlar sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Ushbu qonunda qo'llaniladigan asosiy tushunchalar:

- Elektron to'lov - texnika vositalaridan, axborot texnologiyalaridan va axborot tizimlari xizmatlaridan foydalangan holda elektron to'lov hujjatlari vositasida naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish elektron to'lovidir. Elektron to'lov to'lov tizimining subyektlari o'rtasida tuzilgan shartnomalar asosida to'lov tizimining belgilangan qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi.
- To'lov tizimi va uning turlari - elektron to'lovlar amalga oshirilayotganda to'lov tizimining subyektlari o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlar majmuyi to'lov tizimidir.

To'lov tizimining turlari:

- banklararo to'lov tizimi;
- bankning ichki to'lov tizimi;
- chakana to'lovlar tizimlaridan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari

Respublikamizda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni rivojlantirishni yuksaltirish uchun Prezidentimiz tomonidan ko‘plab farmonlar chiqarilib, ular hayotga tadbiq etilmoqda. Ulardan asosiylari:

1. Telekommunikatsiyalar sohasida boshqaruvni takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida (2000 yil 28-iyun.);
2. Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to‘g‘risida (2002 yil 30-may.);
3. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida (2005 yil 8-iyul.);
4. O‘zbekiston Respublikasining jamoat ta’lim axborot tarmog‘ini tashkil etish to‘g‘risida (2005 yil 28-sentabr);
5. Respublika aholisini axborot-kutubxona bilan ta’minlashni tashkil etish to‘g‘risida (2006 y 20-iyun.);

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining qarorlari va sohaga oid meyoriy hujjatlari

1. Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida (2002 y 21-mart.)
2. Axborotlashtirish sohasida normativ-huquqiy bazani takomillashtirish to‘g‘risida (2005 y 22-noyabr.)
3. Davlat va xo‘jalik boshqaruvi, Mahalliy davlat hokimiyati organlarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yuridik va jismoniy shaxslar bilan o‘zaro aloqadorligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida (2007 yil 23-avgust)
4. Internet tarmog‘ida O‘zbekiston Respublikasining Hukumat portalini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida (2007 yil 17dekabr)
5. Internet tarmog‘ida O‘zbekiston Respublikasining Hukumat portaliga axborotlarni taqdim etish va joylashtirish tartibi to‘g‘risida (2009 yil 21-aprel)

6. O‘zbekiston Respublikasi prezidentining qarori mamlakatimizning dasturiy ta‘minot vositalari ishlab chiquvchilarini rag‘batlantirishni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida (2013 yil 20 sentabr)
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining qarori O‘zbekiston Respublikasi Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo‘mitasi huzuridagi "Elektron hukumat" tizimini rivojlantirish markazi hamda Axborot xavfsizligini ta‘minlash markazi faoliyatini tashkil etish chora tadbirlari to‘g‘risida (2013 yil 16 sentabr)

Ushbu qarorga ko‘ra, “Elektron hukumat” tizimini rivojlantirish markazi va Axborot xavfsizligini ta‘minlash markazining asosiy vazifalari va tashkiliy tuzilmasi aniqlandi.

Belgilab qo‘yildiki, “Elektron hukumat” tizimini rivojlantirish markazi hamda Axborot xavfsizligini ta‘minlash markazi faoliyatini moliyalashtirish va moddiy texnik ta‘minoti tasdiqlangan smeta doirasida Axborot kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish fondi, Xalqaro moliya institutlari, xorijiy hukumat va hukumatga qarashli bo‘lmagan tashkilotlarning beg‘araz texnikaviy ko‘magi (grantlari), xo‘jalik faoliyatidan, shuningdek qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalardan tushadigan mablag‘lar hisobiga amalga oshiriladi.

Elektron hukumatning asosiy tadbirlari:

1. Elektron hukumat o‘quv markazini tashkil etish (davlat xodimlarini, shuningdek, aholining keng ko‘lamini va tadbirkorlik subyektlarini uzluksiz ta‘limini tashkil etish);
2. “Elektron hukumat haqida” O‘zbekiston Respublikasi Qonunlarini ishlab chiqish (Infrastruktura, axborot tizimlari majmui integratsiyasi va davlat tashkilotlarining ma‘lumotlar bazasi talablarini aniqlash);
3. Elektron hukumatni qo‘llab quvvatlovchi mahalliy markazlarini tashkil etish (Elektron hukumat xizmatlari Aholiga taqdim etish shart sharoitlarini bilan ta‘minlash).

Nazorat savollari:

1. Respublikamizda axborot texnologiyalaridan foydalanish sohasini tartibga soluvchi qanday asosiy meyoriy-huquqiy hujjatlar mavjud?
2. O'zbekiston Respublikasining axborotlashtirish to'g'risidagi qonuni haqida nimalarni bilasiz?
3. Axborotlashtirish nima?
4. Axborot resursi deb nimaga aytiladi
5. axborot resurslarining yoki axborot tizimlarining mulkdori kim?
6. Kim axborot resurslarining yoki axborot tizimlarining egasi bo'ladi?
7. Axborot texnologiyasi tushunchasini sharhlang.
8. Axborot tizimi tushunchasini sharhlang
9. Axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat?
10. O'zbekiston Respublikasining elektron raqamli imzo to'g'risidagi qonuni haqida nimalarni bilasiz?
11. Elektron raqamli imzo deganda nima tushuniladi?